

Hukmdorlar Shoiri Va Olim Muhammad Shayboniyxonning Turkiy Diniy Munozara Majlislari (Fazlulloh ibn Ro‘zbehon Isfahoniyning «Mehmonnomayi Buxoro» asari ma’lumotlari asosida)

Sherxon Qorayev¹

Annotatsiya: O‘zbek xoni Muhammad Shayboniyxon huzurida boshqa islom hukmdorlari qoshida o‘tkazilgani kabi ulamolar ishtirokida diniy majlislar – ilmiy bahsu-munozaralar tashkil etilgan. Fazlulloh ibn Ro‘zbehon Isfahoniyning “Mehmonnomayi Buxoro” asarida hukmdor va olim Shayboniyxon huzuridagi ana shunday yig‘ilishlar qalam olingan.

Muhammad Shayboniyxonning o‘zi ham o‘zbek tilida o‘tkazilgan munozaralarda bahsga kirishgan. Mazkur yig‘ilishlarda o‘z davrining mutafakkirlari, fozillari va ulamolari ishtirok etgan.

Kalit so‘zlar: Islom olimi, tariqat peshvosi, bahsu munozara, diniy majlislar, yig‘in ahli.

O‘rta Osiyo hududida XV - XVI asrlarda hukm surgan shayboniyylar davlati asoschisi, “shoir, musavvir, musiqashunos va xushovoz qiroatxon - hofiz”² Muhammad Shayboniyxon (1451-1510) nafaqat salohiyatli hukmdor,³ u shuningdek, shoir, din peshvosi va benazir Islom olimi bo‘lganligi ko‘pchilikka ma’lum.⁴ Lekin ming afsuski, Shayboniyxon va shayboniyylar davri aksariyat tarixchi va adabiyotshunos olimlar tomonidan e’tiborsiz qoldirilmoqda.⁵

“Xalifa ur-Rahmon (Tangrining erdagi xalifasi)” va “Imomi az-zamon (Davri imomi)” Muhammad Shayboniyxon din va tasavvuf ilmi bilimdoni bo‘lgan. Uning huzurida doimo ulamolar ishtirokida o‘zbek tilida diniy (ilmiy) majlislar o‘tkazilgan. Xon Sharq tillaridan biri bo‘lgan o‘zbek tili rivojiga katta e’tibor bergan. Fazlulloh Ro‘zbehon Isfahoniyning yozishicha, Buxoroda Shayboniyxon huzurida ulamolar ishtirokidagi o‘zbek tilida o‘nga yaqin diniy munozara bahslar tashkil etilgan. Birinchi yig‘inda Zamaxshariy va uning “Kashshof” tafsiri muhokama qilingan. Unda mavlono Sharafiddin Abdurrahim, Samarqand qozisi va Hirot ulamolari ishtirok etgan. Ikkinchi diniy majlis muqaddas Ramazon oyiga bag‘ishlangan. Uchinchi bahsda esa ro‘za, ibodat, zakot va musulmonlar o‘rtasidagi turli munosabatlar muhokama qilingan. Oxirgi munozada esa “Allohning erdagi soyasi bo‘lgan” xon haqida so‘z yuritilgan.⁶

Din peshvolari yig‘ilishlarda Qur’oni karim, hadislar va ulug‘ ulamolarning asarlari asosida bahslashishgan.

O‘zbek xoni Shayboniyxon diniy munozaralarda ko‘pincha mutafakkir hadisshunos Fazlulloh Isfahoniyni murojaat qilgan. U payg‘ambarimiz (S.A.V.) hadislar asosida ko‘tarilgan masalalarga

¹ Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

² Мансуров У., Тўхтабаев А. Ўзбекистоннинг маданияти ва санъати тарихи. Т.: Ўзкитоб савдо нашриёт МИУ, 2021.-Б.110.

³Муҳаммад Юсуф Мунши. Тоҷик тилидан таржима, сўз боши, изоҳ ва қўрсаткичлар муаллифи А.Семёнов.Т.: Фан, 1956.-Б.56.

⁴ <https://ziyouz.uz/uzbek-sheriyati/uzbek-memtoz-sheriyati/muhammad-shayboniy/>

⁵ Шермамадова Ш. Муҳаммад Шайбонийхон ҳаёти ва ижодининг ўрганилиши//International Journal of Recently Scientific Researcher’s theory. Vol. 3. Issue 3.-P.23-33.

⁶ Фазлаллаҳ ибн Рузбехан Исфохани. Михман-наме-йи Бухара. Перевод, предисловие и примечания Р.П.Джалиловой. –Москва, Наука, 1976.-С.59.



echim izlagan. Majlislarda xonning o'zi ham shaxsiy fikrini bildirib turgan. Bu esa uning din peshvosi va bilimdoni ekanini ko'rsatgan.

Xon huzuridagi ulamolar kengashi yig'ilishlarida hukmdor tomonidan o'rta tashlangan muhim va dolzarb masalalar muhokama qilingan.

Buxoro yaqinidagi Qasri Orifondagi munozaralarda Farididdin Attor va uning "Javhar az-zot" kitobi haqida bahs borgan. Ulamolar Attorning Mansur Xalloga bo'lgan munosabati haqida ham tortishishgan. Shuningdek, unda tasavvuf peshvosi Muhyiddin al-Arabiy va "Hujjat ul-islom" G'azzoliy to'g'risida ham so'z yuritilgan.

Munozara mavzusi xon yoki Fazlulloh Ro'zbehon tomonidan tanlangan hamda ulamolar ushbu muammoni har tomonlama muhokama qilishgan. Yig'ilishlardan birida Attorning "Javhar az-zot" hamda Abu Bakr ibn Is'hoq Gulobodiyning "Ta'arruf" asarlari to'g'risida so'z yuritilgan. Ulamolar garchi xalifa Abu Bakr Siddiq va boshqalarning jannatga tushishi payg'ambarimiz (S.A.V.) tomonidan bashorat qilingan bo'lsa-da, mazkur buyuk zotlar o'lim paytida vahima tushishganini muhokama qilishgan.⁷ Binobarin, olimlar o'z so'zi isbotida turli kitoblardan iqtiboslar keltirishgan.

Munozara majlislarida Muhammad Shayboniyxonga bag'ishlangan turkiy qasidalar va qit'alar ham o'qilgan. Bahslarda zerikib qolinmasligi uchun she'rlar va g'azallar mutolaa qilingan. Shayboniyxon va boshqa shoirlar yangi g'azallarni majlis ahliga hukmiga havola qilgan.

Shayboniyxon harbiy yurishlar davrida ham diniy majlislar qurgan. Fazlulloh Ro'zbehon Isfohoniya ko'ra, xon Buxoro cho'lidan o'n to'rtinchi marotaba o'tishi paytida munozara majlisi tuzishni buyurgan. Mazkur bahslarda o'tmishda davlat qurgan podshohlar tarixi haqida so'z borgan. Shuningdek, Jabroil haqidagi hadis hikoya qilinib, sharhlangan. Ushbu anjumanda olim Fazlulloh Ro'zbehon Isfahoniy Movarounnahrning minglab ulamolari qatnashgan Samarqanddagi hadis majlislarini so'zlab bergan.⁸

Ushbu diniy majlisda olim Qiyomat qoimni payg'ambarimiz (S.A.V.) hadislarini orqali dalillab bergan.⁹

"Mehmonnomai Buxoro"da yozilishicha, Turkistonning Arquq shahrida xon huzurida Movarounnahr ulamolar to'planishgan. Mazkur majlisda Abdulloh al-Arabiy al Yamaniy ham qatnashgan. U Shayboniyxonning chap tomonidan joy olgandi. Fazlulloh Ro'zbehon Isfahoniy esa xonning o'ng tomonida o'tirgan. Shayboniyxon Fazlulloh Isfahoniyga hadis o'qishini aytgan. Olim esa payg'ambarimiz (S.A.V.)ning vafotidan ma'lum bir vaqt o'tib, Movarounnahrda "Islom himoyachisi" paydo bo'lishi haqidagi bashorat - hadisini zikr etgan. Binobarin, ushbu hadisda qayd etilgan besh belgi Muhammad Shayboniyxonda borligini aytgan.¹⁰ Ya'ni, unga ko'ra, hadisda bashorat qilingan hukmdor aynan "islom himoyachisi" Shayboniyxonning o'zidir.

Shayboniyxon bu paytda Dashti Qipchoqdagi musulmon bo'lmagan e'tiqodsiz qozoq yurtlariga qarab yurishga otlangandi. Ulamolar "Islom podshosi" Muhammad Shayboniyxonning ushbu qadamini "ilohiy urush – jihad" deb ma'qullashdi.¹¹ Eng muhimi o'zbek xoni har doim ulamolar bilan suhbatlashar, har qadamini dinu islom, shariat tarozisiga tortib ko'rardi. Vaqtini ibodatga, Qur'on o'qish va diniy majlislariga bag'ishlagandi.¹²

⁷⁷ Фазлаллах ибн Рузбехан Исфакани. Михман-наме-йи Бухара. Перевод, предисловие и примечания Р.П.Джалиловой. –Москва, Наука, 1976.-С.65.

⁸ Кўрсатилган асар.-С.72.

⁹ Фазлаллах ибн Рузбехан Исфакани. Михман-наме-йи Бухара. Перевод, предисловие и примечания Р.П.Джалиловой. –Москва, Наука, 1976.-С.73.

¹⁰ Фазлаллах ибн Рузбехан Исфакани. Михман-наме-йи Бухара. Перевод, предисловие и примечания Р.П.Джалиловой. –Москва, Наука, 1976.-С.79.

¹¹ Кўрсатилган асар.-С.80.

¹² Кўрсатилган асар.-С.157.



Samarqand Konigulidagi yig‘ilishda ham xon huzuridagi ulamolar bahslashishgan.¹³ Din peshvolari qiyin savollarga javob izlashib, boshqa ulamolar bilan bahs – munozaraga kirishishgan hamda hukmdorga fatvo berishgan.¹⁴

Din peshvosi va olim Shayboniyxon fiqhshunos va tilshunos olim ham bo‘lgan.¹⁵ Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahbob”da Shayboniyxon fiqhga doir risola hamda turkiy til qonun – qoidalariga oid kitob yozganini aytgan.¹⁶ Tazkiranavis Nisoriyning yozishicha, “*deydilarki, xon Hazora qal’asi fathiga otlanganda, bir g‘azal bitib, Hiri (Hiro) shayxul-islomi va Qozi Ixtiyorga yuboribdi. Mana bu bir necha bayt o’sha g‘azaldan bitilayotir. Bayt:*

Mandan salom ul shayxu Ixtiyorg‘a,

Na Ixtiyorkim, ul chug‘ul, rishvaxorg‘a,

Tangri inoyati bila qavmi hazorani,

Andoq qilayki, tajriba bo‘lsin hazorg‘a.

Qozi Ixtiyor turkiy tilni bilmas ekan, uning uchun turkiy til qonun-qoidalari kitobini bitib yuboribdi”.¹⁷ Herman Vamberi “Buxoro yohud Movarounnahr tarixi” asarida Nisoriy fikrlarini to‘ldirib, Shayboniyxonni shunday tasvirlagan: “*Shayboniyning shaxsi xususida shularni aytish mumkin: u har holda o‘zining eronlik dushmanlari tarafidan tasvir etilganidek, nimani xohlasa, shuni bajarib yuruvchi vahshiy bir kimsa emas edi. Masalan, u zamonning ruhoniylariga katta hurmat, hatto bolalarcha itoat qilib, barcha urush safarlarida o‘zi bilan barobar kichkina go‘zal kutubxonasini olib yurar, Temur kabi u ham (yuqorida aytganimizdek) davr ulamosi bilan diniy munozaralarga qatnashgan. Qur‘onning ba’zi bir oyatlari haqida Hirotning peshqadam tafsirchilari bo‘lgan Qozi Ixtiyor va Muhammad Yusufklar bilan bahslashgan.*”¹⁸

Muxtasar aytganda, “Shaxsan Muhammad Shayboniyxon hamda u tuzgan va qariyb 100 yil yashagan davlatimiz xususiga kelsak, u va uning avlodlari faoliyati va qoldirib ketgan madaniy, ma’rifiy va me’moriy yodgorliklarga qarab baho bermoq joizdir. Shayboniyxonning kim bo‘lganligini, dunyoqarashi va ma’naviy qiyofasi qanday bo‘lganligini bilmoq va aniqlamoq uchun loaqal uning g‘azallarini o‘qimoq lozim. Faqat achinarli eri shundaki, sho‘rolar davrida chop etilgan tarixiy va badiiy kitoblarda bu tarixiy shaxs haqida noto‘g‘ri taassurot hosil qilingan edi”.¹⁹ Chunonchi, “*Temuriylar va shayboniylar tarixini yoritishda birini ulug‘lab, ikkinchisining yuziga qora bo‘yoq chaplash insofdan bo‘lmaydi. Bobur va Shayboniyxon ziddiyatiga oliy hakam vaqt allaqachon o‘z hukmini chiqarib bo‘lgan. Qolaversa, ularning har ikkalasi ham bizning ulug‘ bobomiz. Ular va avlodlarining mangukka daxldor badiiy va madaniy merosi xalqimizning ma’naviy mulkiga aylangan*”.²⁰

Shayboniylar sulolasi ham Temuriylar kabi ilmu ma’rifatni sevishgan va o‘zlari ham aqalli bir bayt bo‘lsa ham she’r aytishga hamda shoirlarni mushoiraga chorlashni xush ko‘rishgan. “*Shayboniylar davrida fan, madaniyat va she’riyatning rivojlanishida mazkur sulola namoyandalarning ma’rifatparvarligi hamda o‘zlarining ham ilm, san’at, she’riyatga ixlosi balandligi muhim ahamiyat kasb etgan. Ular ilm – fanning rivojlanishiga, shoir va ijodkorlarning erkin faoliyatiga homiylik qilganlar, ularni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab – quvvatlaganlar. Masalan, Shayboniyxon (1451-1510), Ko‘chkinchixon (1452-1529), Abu Saidxon (1481-1533), Ubaydullaxon (1487 – 1540), Abdulazizxon (vaf. 1551), Abdullaxon 2 (1534-1598), Abdulmo‘minxon (1567-1598), Abdol Sulton (vaf. 1578), Abulxayr Sulton (vaf. 1578), Muzaffar Sulton (vaf. 1578), Do‘stum Sulton (vaf. 1583) kabi*

¹³ Қўрсатилган асар.-С.152.

¹⁴ Қўрсатилган асар.-С.157.

¹⁵ Ражабов Қ. Амир Муҳаммад Шайбонийхон.// -Бухоро, Бухоро мавжлари, 2006 йил, январь.-№1.-Б.45-49.

¹⁶ Ҳасанхожа Нисорий. Музаққир аҳбоб. Т.: Мерос, 1993.-Б.30.

¹⁷ Ҳасанхожа Нисорий. Музаққир аҳбоб. Т.: Мерос, 1993.-Б.17-21.

¹⁸ Ҳерман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. Т.: Ф.Фулом номидаги АСН-1990.-Б.91.

¹⁹ Ибраҳимов А. Бизким ўзбеклар. Т.: Шарқ НМАК БТ, 2011.-Б.319.

²⁰ <https://xs.uz/uzkr/post/tarikhimizni-qaytarib-bering-abdullakhon-ii-kim-bolgan>



*shayboniylar sulolasi vakillari fozillar, olimlar, ahli shuaroni izzat – ikrom etishgan. Ular bilan iliq munosabatda bo‘lib, o‘z saroy majlislariga taklif etib, ijodlaridan bahramand bo‘lishgan”.*²¹

O‘zbek xoni Muhammad Shayboniyxon din olimi va peshvosi bo‘lgani uchun uning avlodlarida Ubaydullaxon, Abdulazizxon, Iskandarxon kabi o‘nlab islom va tariqat arboblari, yassaviya va naqshbandiya shayxlari etishib chiqqan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mansurov U., To‘xtabaev A. O‘zbekistonning madaniyati va san‘ati tarixi. T.: O‘zkitob savdo nashriyot MIU, 2021.-B.110.
2. Muhammad Yusuf Munshi. Tojik tilidan tarjima, so‘z boshi, izoh va ko‘rsatkichlar muallifi A.Semyonov.T.: Fan, 1956.-B.56.
3. <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-memtoz-sheriyati/muhammad-shayboniy/>
4. Shermamatova Sh. Muhammad Shayboniyxon hayoti va ijodining o‘rganilishi//International Journal of Recently Scientific Researcher’s theory. Vol. 3. Issue 3.-P.23-33.
5. Fazlallax ibn Ruzbexan Isfaxani. Mixman-name-yi Buxara. Pervod, predislovie i primechaniya R.P.Djalilovoy. –Moskva, Nauka, 1976.-S.59.
6. Rajabov Q. Amir Muhammad Shayboniyxon.//Buxoro, Buxoro mavjlari, 2006 yil, yanvar.-№1.-B.45-49.
7. Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. T.: Meros, 1993.-B.30.
8. Herman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN-1990.-B.91.
9. Ibrahimov A. Bizkim o‘zbeklar. T.: Sharq NMAK BT, 2011.-B.319.
10. <https://xs.uz/uzkr/post/tarikhimizni-qaytarib-bering-abdullakhon-ii-kim-bolgan>
11. <https://fanvatalim.uz/uz/article/98/>

²¹ <https://fanvatalim.uz/uz/article/98/>

